



MEDIA-MAKONDA SIYOSIY MANIPULYATSIYANING OQIBATLARI

Marifjonov Abrorjon

Uzjoku Magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10657574>


Annotasiya: Ommaviy axborot vositalari soxta yangiliklar va dezinformatsiyalarni tarqatish yoki ularga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Buni atrofimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan ham anglashimiz mumkin. Shularni inobatga olgan holda mavzuda soxta xabarlar, dezinformatsiyalarga fokus qaratilgan.

Kalit so'zlar: OAV, soxta xabarlar, dezinformatsiyalar, media savodxonlik, fakt, axborot.

OAV orqali tarqatilyotgan axborotning manipulyativ ta'siri kuchliligini bugun hech kim inkor etmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, OAV orqali tarqatilyotgan xabarning haqqoniyligiga ishonish ilk gazetalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. 1874 yilning 9-noyabr kuni New York Herald gazetasida reportyor T.B.Konneri tomonidan Sentral Park hayvonot bog'ida yirtqichlar chiqib ketib, "ikki yuzga yaqin odam jarohatlangan, toptalgan bo'lib, oltmish nafari og'ir ahvolda. Ulardan uchasi ertalabgacha yetib bormasligi mumkin. O'n ikkita yirtqich hayvon hamon erkinlikda. Ular qaerga yaqinlashganligi hozircha noma'lum" deya yolg'on xabar bosib chiqarilib, uning oxirida gazeta mushtariylari xavotirga tushmasliklari, bularning barchasi uydirma ekanligi yozilgan edi¹. Ammo ko'pchilik xabarning aynan shu joyigacha yetib kelmay yashirinishgan, ba'zilar esa qo'lga qurol olib yirtqichlarni o'ldirish uchun hattoki ko'chaga chiqishgan. 1939 yili CBS radiostantsiyasi Orsona Uelles tomonidan Mercury teatrida Gerbert Uellsning "Dunyolar urushi" romani asosida qo'yilgan asarining radiopostanovkasini efirga uzatayotgan paytida ommaviy tartibsizliklar yuz bergan. Roman syujetiga ko'ra, marsliklar yerni bosib olib, millionlab insonlarni gaz bilan zaharlaydilar. Ko'pgina odamlar radiopostanovkaning birinchi qismini eshitgan daqiqalardan boshlab qochishga, "dushmanlar"dan yashirinishga harakat qilishgan². 1835 yili birinchi Amerika tabloidi New York Sun jurnalist Richard Adame Lokkning ingliz astronomi oyni yuzasida aqlli jonzotlarni teleskop orqali ko'rganligi haqidagi yolg'on xabarni bosib chiqaradi. Natijada gazetaning adadi o'sha payti eng yuqori

¹ Jerald J. The VR Book: Human-Centered Design for Virtual Realit. New York: Association for Computing Machinery and Morgan & Claypool, 2016.

² Системы виртуальной, дополненной и смешанной реальности : учеб. пособие / А. А. Смолин, Д. Д. Жданов, И. С. Потемин, А. В. Меженин, В. А. Богатырев. -Санкт-Петербург : Университет ИТМО, 2018.





ko'rsatkich — 19 ming donaga yetadi. Hattoki, xristian ayollar jamiyati ularni nasroniy diniga kiritish uchun Oyga uchish taraddudiga ham tushishadi³.

Bugun kunda ham OAVning ta'siri o'sha paytdagidan kam emas. Aynan axborotni tahlil etmay, o'z holicha qabul qilish oqibatida dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo'l urmoqda, o'zini kino asari qahramoni sifatida his qilganlar esa, "qahramon" xatti-harakatlarini takrorlagan holda qo'llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo'lishmoqda⁴. Masalan, Respublikamiz telekanallari orqali efirga uzatilgan "Jumong" serialidan so'ng yosh bolalarning o'zini "Jumong" his qilib, qo'lida "qilich" bilan urisha boshlaganliklari, AQShda jangari filmlari va kompyuter o'yinlarini ko'rgan maktab o'quvchilari haqiqiy qurol bilan sinfdoshlari va ko'chadagi begunoh odamlarni otganliklari haqidagi xabarlar tobora ko'payib bormoqda. Bugungi kunda terrorchilik guruhlar tomonidan internet orqali jihodga chaqirgan, "jannat" va'dasini o'zida mujassam etgan axborotlari yoshlar ongiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondoshish bugun zamon talabidir.

Bunda bir necha usullar ommalashib bormoqda:

1. Soxta xabarlarni tarqatish – Ayrim ommaviy axborot vositalari va alohida jurnalistlar qasddan yoki bilmasdan soxta xabarlar va dezinformatsiyalar tarqatadilar. Bu faktlarni tekshirishning yo'qligi, siyosiy yoki mafkuraviy tarafkashlik yoki ko'proq bosish va ulashish istagi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Soxta yangiliklar "aks-sado kamerasi" effekti va odamlarning hayratlanarli yoki dahshatli sarlavhalar bilan bo'lishishga moyilligi tufayli juda tez tarqaladi⁵.

2. Shaffoflikning yo'qligi – ko'plab soxta yangiliklar tarqaladi, chunki ular qonuniy manbalardan kelganga o'xshaydi. Ommaviy axborot vositalari ishonchni mustahkamlashga yordam berish uchun manbalari, faktlarni tekshirish jarayonlari va tuzatishlar haqida shaffofroq bo'lishi kerak.


3. Soxta yangiliklarga qarshi kurashish – Mas'uliyatli ommaviy axborot vositalari faktlarni tekshirish, yolg'on xabarlarni yo'q qilish va rekord o'rnatish

³ Мы столкнулись с гибридной террористической атакой -Карин.

https://tengrinews.kz/kazakhstan_news/myi-stolknulis-s-gibridnoy-terroristicheskoy-atakoy-karin-458614/

⁴ Системы виртуальной, дополненной и смешанной реальности : учеб. пособие / А. А. Смолин, Д. Д. Жданов, И. С. Потемин, А. В. Меженин, В. А. Богатырев. -Санкт-Петербург : Университет ИТМО, 2018.

⁵ Прожерин В.Г., Савченко Я.И. Методы распространения информации в социальных сетях // Проблема комплексного обеспечения информационной безопасности и совершенствование образовательных технологий подготовки специалистов силовых структур: Межвузовский сборник трудов V Всероссийской научно-технической конференции ИКВО НИУ ИТМО, 16-17 октября 2014 г. 2015.





orqali soxta yangiliklarga qarshi turadi. Ular jamoatchilikni dezinformatsiyani aniqlash va ma'lumotlarni onlayn tekshirish bo'yicha o'rgatadi.

4. Mediasavodxonlikni rivojlantirish – Ommaviy axborot vositalari keng jamoatchilik, ayniqsa, yosh avlodlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va mediasavodxonligini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu odamlarga yolg'on ma'lumotni mustaqil ravishda aniqlashga va oldini olishga yordam beradi.

5. Qattiqroq axloq va siyosat – Ba'zilar ommaviy axborot vositalari o'z platformalari orqali dezinformatsiya tarqalishini minimallashtirish uchun qat'iyroq siyosat, axloqiy ko'rsatmalar va javobgarlik choralari muhtoj, deb ta'kidlaydilar.

6. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalishni tartibga solish – dezinformatsiya tarqalishini minimallashtirish uchun ijtimoiy media platformalari qanday tartibga solinishi kerakligi va media industriyasi bunda qanday ishtirok etishi haqida munozaralar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I.RASMIY ADABIYOTLAR:

1.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. — T.: O'zbekiston, 2017.

1.2.O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari. — T.: O'zbekiston, 2007. II.

II.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.MIRZIYOYEV ASARLARI VA MA'RUZALARI:

2.1.Mirziyoyev. Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr) — T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.

2.2. Mirziyoyev. Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq) — T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.

III. O'ZBEK TILIDAGI ADABIYOTLAR:

3.1.Fixtelius E. Jurnalistikaning o'n qoidasi. — T.: Sharq, 2002.

Rashidova. D.,Muratova N. Internet jurnalistikasi.-T.,2007.-B. 9.

3.2.Saidov H., To'xliyeva N. Reportyorlik mahorati. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

Toshpo'latova N. Jurnalistika psixologiyasi. -T.,2013. -184 b.

IV. RUS TILIDAGI ADABIYOTLAR:

6 Qosimova N.Onlayn jurnalistika.darslik.Toshkent-2019.





4.1. Golubeva M.V. Psixologicheskoye vliyaniye na cheloveka – chto eto v psixologii.// Vliyaniye SMI na obshchestvo// https://vuzlit.ru/452978/vliyaniye_obschestvo.

4.2. Kara-Murza S.G. Manipulyasiya soznaniyem.// <http://www.kara-murza.ru/manipul.html>.

V. INGLIZ TILIDAGI ADABIYOTLAR:

5.1. The American Heritage Dictionary of English Language:
<http://education.yahoo.com>

5.2. The Encyclopedia Britannica.: <http://www.britannica.com>

VI. Web Resurslar:

1. <http://www.Ziyouz.Som>.
2. <http://www.Wikipedia.org>.
3. <http://www.Google.ru>.
4. <http://www.evartist.narod.ru>.
5. <http://www.encyclopedia.com>.

